

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60910400 - Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2025



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil “21” avgust dagi 316 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi	4
1.1 Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2 Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	10
2.1. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	10
2.2. Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	15
2.3. 60910400-Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi	16
2.4. Kvalifikatsiya.....	17
Bibliografik ma‘lumotlar	18
Kelishuv varag‘i	19

1. Umumiy tavsifi

60910400 – Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati – 5 yil.

1.1. Qo’llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo’llanishi.

Tibbiyot va farmasevtika oliy ta’limning ushbu malaka talablari 60910400 - Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlovchi barcha tibbiyot va farmatsevtika oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari; oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otanalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

sog’liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o’rtasida sog’lom turmush tarzini targ’ibot qilish, o’tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining oldini olish, yuqumli kasalliklarning oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislashning profilaktik tibbiyotning zamonaviy usullari, fan va sog’liqni saqlashga tegishli ta’lim yo’nalish bo’lib, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy – tadqiqot institutlari, o’rta maxsus kasbiy ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog’liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi. Sog’liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasalari (respublika, viloyat, shahar, tuman va tarmoq (O’zbekiston havo yo’llari, O’zbekiston temir yo’llari va boshqalar) Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi, OITSGa qarshi kurash markazlarida, patologik anatomiya markazlarida, sud-tibbiyot ekspertiza markazlarida, atrof-muhit obyektlarini sanitariya holatini o’rganish, gigiyenik baholash

va profilaktik tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini olib borish, aholi yashash joylari atrof-muhitini sanitariya muhofazasiga yo’naltirilgan tibbiy-profilaktik muammolar bo’yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sanitariya-gigiyenik reglament va me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish faoliyatini olib borish, sog’liqni saqlash tizimining barcha bo’g’inlarida sanitariya-gigiyena sohasida kompleks masalalarni yechishni qamrab oladi. Raqamli texnologiyalardan, jumladan, elektron tibbiy qaydlar va teletibbiyotdan samarali foydalanish, sog’liqni saqlash tizimining birlamchi bo’g’inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo’yicha kompleks masalalarni yechishni o’z ichiga oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Sog’liqni saqlashning birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi hududiy boshqarmalari va bo’linmalari, OITS qarshi kurash markazlarida, patologik anatomiya markazlarida, salomatlik institutlari va uning filiallari, ilmiy-tadqiqot institutlari, dezinfekcion stansiyalar va b.) 60910400-Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o’tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o’qitish bo’yicha pedagogik faoliyati bilan shug’ullanish huquqiga ega bo’ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

- *tibbiy-profilaktik;*
- *tashxislash;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
-

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60910400–Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo’nalishi bo’yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavrlarning kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim:

Tibbiy-profilaktika faoliyatida:

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo’mitasi va boshqarmasi nazorat ostidagi obyektlarda (xizmat ko’rsatish shaklidan qat’iy nazar) ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratlari bo’yicha amaliy faoliyatini mustaqil olib borishi;

sog’lomlashtirish, sanitar-gigiyenik va profilaktik chora-tadbirlar kompleksini mustaqil tarzda ishlab chiqish, muvofiqlashtirishi va o’tkazishi;

ishlovchilar orasida sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini shakllantirish, ularning jismoniy, tibbiy faolligini oshirishi;

gigiyena yo’nalishida qo’llanilayotgan ilg’or profilaktik tadbirlarni o’rganishi va amaliyotga tadbiq etishi;

gigiyena yo’nalishida profilaktik chora-tadbirlarini tashkillashtirish bo’yicha to’liq hajmdagi zaruriy ko’nikmalarga ega bo’lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirishni egallash va baholash qobiliyatlariga ega bo’lishi lozim.

Tashxislash faoliyatida:

bemorlarning epidemiologik anamnezini yig’ish, olingan ma’lumotlarni sharhlash, sanitar-gigiyenik tekshiruv natijalaridan foydalangan holda epidemiologik jarayonni namoyon bo’lishini hisobga olgan holda profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

oilaviy poliklinikada mavjud imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqib Davlat byudjeti mablag’lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmlari ro’yxatiga muvofiq bolalar va kattalarda o’rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish, tashxislash va immunoprofilaktik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va nazorat qilish;

bemorlarda kasallikning xavf omillarini baholash, sog’lig’ini muhofaza qilish va mustahkamlash, sog’lom turmush tarzini jismoniy

va ruhiy jihatdan sog’liqni saqlash bo’yicha maslahatlar berish, ratsional va sog’lom ovqatlanish, sog’lom turmush tamoyillari, OIV-infeksiyasi masalalari bo’yicha maslahatlar berish;

milliy emlash taqvimiga asosan va epidemiologik vaziyatga ko’ra profilaktik emlashni tavsiya etish, profilaktik tadbirlarni nazorat qilish va samaradorligini baholash;

yuqumli kasallik, oziq-ovqatdan, o’tkir kasb (professional) zaharlanishi aniqlanganda epidemiologik o’choqda va muloqotda bo’lganlarni bilan sanitar-epidemiologik tekshirishlarni o’tkazish;

muhim endemik kasalliklarga chalingan bemorlarda birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikaning gigiyenik asoslarini ishlab chiqishda qatnashish;

davlat boshqaruvi organlari, xo’jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, sanitariya-epidemiologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi ustidan belgilangan tartibda davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini (keyingi o’rinlarda - nazorat) laboratoriya va instrumental tadqiqot usullarini qo’llagan holda nazorat qiladi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan umumiy ovqatlanish obyektlarida ratsional va xavfsiz ovqatlanishini tashkil etilishi ustidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarning bajarilishini nazorat qilish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ionlashtirmaydigan nurlanish, shovqin, tebranish va inson salomatligi hamda atrof-muhitga salbiy ta’sir ko’rsatadigan boshqa fizikaviy omillar bilan ishlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishini nazorat qilish;

nazorat obyektlarida o’tkir va surunkali kasb kasalliklarini kelib chiqishi holatlari ustidan nazorat qilish bo’yicha ko’maklashadi;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya-epidemiologiya sohasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yuqori turuvchi tashkilotlarga ma‘lumot tayyorlash;

oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish, oziq-ovqat xom ashyosi va iste‘mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi obyektlar faoliyati, shuningdek, zarur xalqaro amaliyotlarni qo‘llash tajribasiga asoslangan standartlar talablariga rioya qilish ustidan nazorat qilish va joriy etishda ishtirok etish sohasida:

oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanish to‘g‘risida xabar berish tartibini belgilaydi va oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

yuqumli bo‘lmagan kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida:

yuqumli bo‘lmagan kasalliklar o‘choqlarida surishtiruv ishlarini tashkil etadi, sanitariya-gigiyenaga oid va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

inson salomatligi va atmosfera havosiga zararli fizik omillar orqali ta‘sir ko‘rsatuvchi obyektlarning ro‘yxatini va hisobini olib borish;

yuqumli kasalliklar o‘choqlarida observatsiya va karantin tadbirlarini o‘tkazish;

o‘rnatilgan tartibda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ekspertizasini malumotlari asosida aholining nogironlik holatini tahlil qilish va baholash;

faoliyatidagi barcha jarayonlarni “Elektron epidemiologik nazorat” axborot tizimida o‘z vaqtida va to‘g‘ri qayd etilishini ta‘minlash;

mamuriy nazorat xududidagi obektlarida laboratoriya va instrumental tekshiruvlar o‘tkazish;

kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

yangi bilim va usullarni ishlab chiqish, tarqatish va joriy etishga ko‘maklashish;

maxsus tibbiy axborot va uning manbalarini tanqidiy baholash va qaror qabul qilishda ulardan foydalanish;

barcha tashxislash o‘tkazishda bemorlarning xavfsizligini kafolatlash, samaradorlik, maqsadga muvofiqlik va tejamkorlik tamoyillarini qo‘llash;

epidemiologik brigadasi faoliyatini tashkillashtirish va boshqarish;

epidemiologik brigadasi faoliyatini tashkil qilish, tahlil etish, aholi salomatlik holatini baholash, chekka hududlarda emlash ishlari rejalarini tuzish QVP tashkilotlari va hamkorlarni jalb etish;

epidemiologik brigadasi a‘zolari faoliyati samaradorligini yaxshilash, faoliyatida ijobiy natijalarga erishgan tibbiyot xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha tegishli birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi rahbariga takliflar kiritish;

hamkor tashkilotlar bilan birgalikda aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni qo‘llab- quvvatlash bo‘yicha ommaviy targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish va qatnashish, “Salom turmush tarzi maktabi” faoliyatini amalga oshirish;

biriktirilgan aholi yashaydigan hududda sanitariya va epidemiyaga qarshi keng qamrovli tadbirlarni tashkil etish, aniqlangan yuqumli kasalliklar, zaharlanish, jarohatlanish va favqulodda holatlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabarnoma berish;

muxim endemik kasalliklar profilaktikasi maqsadida aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, kun tartibini to‘g‘ri tashkillashtirish, to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollikni ta‘minlash bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar berish, kasalliklar profilaktikasi sohasida bilim va ko‘nikmalarini hosil qilish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQvaQ) rioya qilinishi bo‘yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o‘tkazish va sanitariya-epidemiologiya sohasida qonun buzilishlar bo‘yicha ma‘muriy javobgarlik choralari belgilangan tartibda qo‘llash sohasida:

yuqumli kasalliklar profilaktikasi hamda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, davlat dasturlariga takliflar tayyorlash va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

manfaatdor tashkilot va muassasalar bilan birga shahar hududida yuqumli kasalliklar bo‘yicha sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta‘minlash va ularning tarqalishining oldini olish borasidagi kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirilishini tashkil etish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yuqumli kasalliklarni profilaktikasi borasidagi amaldagi me‘yoriy va direktiv hujjatlar, shu bilan birga sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQvaM) rioya qilinishini belgilangan tartibda o‘rganish va tekshirishlar o‘tkazish, aniqlangan qonun buzilish holatlari bo‘yicha javobgarlik choralari belgilash to‘g‘risidagi takliflarni tayyorlash vazifasini amalga oshirish;

faoliyat ko‘rsatayotgan hududda yuqumli kasalliklar va ularning tarqalishiga ta‘sir etuvchi omillarni, potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash hamda samarali profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirishda bo‘lim hamda tuman bo‘limlari tomonidan berilgan ma‘lumotlar va hisobotlarga asoslanib amalga oshirish;

yuqumli kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan profilaktik, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlari o‘tkazilishini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni amalga oshiish;

yuqumli kasalliklar bo‘yicha operativ va retrospektiv epidemiologik tahlillar o‘tkazish, o‘tkazilgan epidemiologik tahlillar natijasida yuqumli kasalliklarni oldini olish yuzasidan samarali tadbirlar ishlab chiqish, tadbirlarni muvofiqlashtirish va nazorat o‘rnatish;

yuqumli kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan tahlil qilishning yangi shakllari va usullarini amaliyotga joriy etish faoliyatini amalga oshirishda bo‘lim mutaxassislari ishtirokida tashkil etish;

sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshqarmasining tegishli bo‘limlari bilan hamkorlikda aholi hududlarida yuqumli kasalliklarning dolzarb masalalari bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashda ishtirok etish;

ma’lum xududlar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bilan kasallikni keltirib chiqaruvchi manbalarni yo‘q qilishga, antropoonoz va zooantroponoz infeksiyali (salmonellyoz, sil, qo‘tir) kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan faoliyatni SEO va JSX xudud bo‘limlari bilan birgalikda olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish;

yuqumli kasalliklar o‘choqlarida surishtiruv ishlarini xudud bo‘limlarida tashkil etilishini nazoratini olib borish;

tashkiliy-uslubiy raxbarlikni takomillashtirib, profilaktik va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni o‘tkazishda SEO va JSX xudud bo‘limlari va sog‘liqni saqlashga qarashli boshqa muassasalariga amaliy yordam ko‘rsatish.

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishi;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilishi;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash.

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilish, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga:

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiyo ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zarur bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilishi;

sohaga oid innovasiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

mehnat jarayonida xavsizlikni ta‘minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lish;

atrof-muhitni muhofza qilish va mehnat xavsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

pullik xizmatlarni tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim;

Axborot tahliliy faoliyatida:

boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to’plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko’rsatkichlari bo’yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobotlar tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

pedagogik faoliyatida (umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim tizimida):

umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta’lim tizimining ta’lim muassasalarida tayyorgarlik yo’nalishida nazarda tutilgan o’quv fanlari bo’yicha tibbiy fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg’ulotlarni o’tkazish;

o’quv jarayonini tashkil etish va o’tkazilishiga ko’maklashishi, tadqiqotlarda ishtirok etish; ma’lumotlarni to’plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o’qitilayotgan fanlar bo’yicha dars mashg’ulotlarini o’tkazish uchun zarur bo’lgan o’quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbiq etish;

mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o’qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o’z-o’zini muntazam takomillashtirib borish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tibbiy profilaktika ishiga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etishi;

tibbiy-profilaktika ishiga oid ilmiy to’plamlar, mahalliy va xorijiy ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o’rganishi;

kasbiy faoliyat ob’ekti yo’nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o’rganishi;

ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda, davlat sanitariya-epidemiologiya ososiyshitalik qo’mitasi va uning tuzilmalarida eksperimental tadqiqotlar o’tkazishi, ularning natijalariga ishlov berishi, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarishi;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlashi, soha oid adabiyotlarni ekspertizasini amalga oshirishda qatnashishi;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashishi;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishi;

ma’lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo’yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish, ilmiy-amaliy mavzuiy jurnallarga maqolalarni tayyorlash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar

2.1. Kasbiy kompetensiyalar ro’yxati quyidagi kompetensiya toifalari asosida shakllantriladi:

Tibbiy bilimlar;

Umumiy gigiyena va jamoat salomatligi asoslari;

Ovqatlanish gigiyena asoslari;
 Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya;
 Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi;
 Shaxsiy rivojlanish;
 Radiatsion gigiyena sohasida;
 Harbiy gigiyena sohasida;
 Kommunal va mehnat gigiyenasi sohasida;
 Epidemiologiya va infeksiyon nazorat sohasida;

Kompetensiya toifalari	Kod	Kompetensiya
Tibbiy bilimlar (TB) Tibbiy bilimlarni egallash	TB.1	Odam organizmining tuzilishi va funksiyalari, normal anatomik va fiziologik rivojlanishini bilish (hamma yosh toifalari).
	TB.2	Organizm struktur-funksional o‘zgarishlari asosida kasalliklarning xavf omillari, salomatlik determinantlarini (genetika/irsiyat, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, xulq-atvor omillari va boshqalar) bilish.
	TB.3	Laborator-instrumental tekshiruv usullarini va tahlil qilishni bilish
	TB.4	Nomedikamentoz davolash asoslarini bilish (sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, chekish va semizlik bilan kurashish va b.) va aholiga sog‘lom hayot tarzi haqida ma’lumot berishni bilish
	TB.5	Aholining alohida guruhlarida biologik, psixologik, ijtimoiy va xulq-atvor o‘zgarishlarini bilish (homiladorlar, imkoniyati cheklangan shaxslar, onkologik bemorlar va boshqalar)
	TB.6	Kasalliklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikasini bilish
Umumiy gigiyena va jamoat salomatligi asoslari (UJS) Umumiy gigiyena va jamoat salomatligiga doir bilimlarga ega bo‘lishi	UJS.1	Aholi salomatligi - uni o‘rganish usullari, ijtimoiy-gigienik ahamiyati, ijtimoiy-gigienik va ekologik omillar hamda turmush tarzining aholi salomatligini shakllanishidagi tutgan o‘rnini bilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
	UJS.2	Eng muhim kasalliklar, ularning ijtimoiy-gigienik ahamiyati, sog‘liqni saqlashning nazariy asoslari va shahar va qishloq aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil qilish, onalik va bolalikni himoyalash, sanitariya epidemiologiya xizmati, sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, tibbiy-mehnat ekspertizasini tashkil qilish, sog‘liqni saqlashni boshqarish, rejalashtirish, mablag‘ bilan ta‘minlash asoslarini bilish va baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lish
	UJS.3	Sog‘liqni saqlash tizimida boshqaruvchanlik toifalari, marketing va uning tamoyillari, ehtiyojlari, bozor, marketing xizmati, bozor iqtisodiyoti sharoitida narx-navoning shakllanishini bilish va marketingni boshqarish, ehtiyojlik holati va bozor iqtisodiyoti

		sharoitida salomatlikni himoyalashni tashkil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
	UJS.4	Davlat va idoraviy tibbiyot statistikasini yuritish, to‘plash, tahlil qilinishiga uslubiy rahbarlik qilish, aholi salomatligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash maqsadida zarur tekshirishlar va so‘rovlar o‘tkazish.
<p>Ovqatlanish gigiyena asoslari (OG)</p> <p>Oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish gigiyena sohasida bilimlarga ega bo‘lishi</p>	OG.1	Oziq-ovqat mahsulotlarining gigienik ekspertizasi va gigienik baholash ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.2	Profilaktik va parhez ovqatlanishni ishlab chiqish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.3	Ovqatlanish gigiyenasi bo‘limida ogohlantiruvchi va joriy sanitariya nazoratini o‘tkazish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.4	Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lish.
	OG.5	Ovqatlanish bilan bog‘liq kasalliklarning oldini olish va tarqalishi darajasini kamaytirish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.6	Aholi orasida keng tarqalgan nutrientlar tanqisligi bilan bog‘liq kasalliklar bo‘yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.7	Oziq-ovqat ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish savdo korxonalarida sanitar-gigienik va epidemiologik tahlika omillarini baholash va profilaktik chora tadbirlar ishlab chiqish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.8	Ovqatdan zaharlanishlarni tahlil qilish va keyinchalik ularga yo‘l qo‘ymaslik tadbirlarini ishlab chiqish ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
	OG.9	Sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha bilimga ega bo‘lish.
	OG.10	Oziq-ovqat xavfsizligi tizimlarida oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish, HACCP, ISO va “Kodeks Alimentarius” xalqaro me‘yorlari bo‘yicha ko‘nikmaga ega bo‘lish.
	OG.11	Oziq-ovqat mikrobiologiyasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
	OG.12	Oziq-ovqat xavfsizligi sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilish.
	OG.13	Sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligini ta‘minlash sohasida potensial xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, baholash va bartaraf etish maqsadida kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog‘liq kasalliklar ustidan milliy monitoring olib borish
<p>Shaxslararo muloqot va kommunikatsiya (SHM)</p>	SHM.1	Profilaktika, epidemiyaga qarshi kurashish maqsadlariga erishish uchun aholiga yo‘naltirilgan samarali muloqot va shaxslararo muloqot ko‘nikmalaridan foydalanishni va namoyish etish.

Ish faoliyatida jamoa a’zolari va aholi bilan samarali muloqot	SHM.2	Ish faoliyatida doimiy tarzda etika me’yorlariga rioya qilish.
	SHM.3	Jamoada, hamkasblar bilan, boshqa yo’nalishdagi mutaxassislar bilan muloqot qilganda SHAM ko’nikmalarini qo’llash
	SHM.4	Ish faoliyatini optimallashtirish va qaror qabul qilish uchun raqamli teletibbiyot texnologiyalaridan foydalanish
Bolalar va o’smirlar gigiyenasi (BO’G) Bolalar va o’smirlar gigiyenasi sohasida bilimlarga ega bo’lishi	BO’G.1	Bolalar va o’smirlar jamoasining salomatlik holatini o’rganishning gigiyenik asoslash ko’nikmalariga ega bo’lish.
	BO’G.2	Bolalar va o’smirlar muassasalarida o’quv-tarbiyaviy, o’quv va o’quv-ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishiga, ovqatlanishiga, o’yinchoqlari, kiyimlari, o’quv darsliklari, jihozlariga gigiyenik talablarini va baholash usullarini qo’llash ko’nikmalariga ega bo’lish.
	BO’G.3	Bolalar va o’smirlar muassasalarida sanitariya epidemiologiya monitoringi o’tkazish ko’nikmalarga ega bo’lish
Shaxsiy rivojlanish (SHR) Shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarning namoyon qilish	SHR.1	Shaxsiy kompetentlik doirasida ishlash, o’zining funksional majburiyatlarini bajara olmaslik sabablarini bilish.
	SHR.2	Qarorlarni qabul qilishda hamkasblarda ishonch xissini oshiruvchi ishonch va javobgarlikni namoyon qilish
	SHR.3	Odob-ahloq me’yorlarini bilish, stressni boshqara olish, qaror qabul qilish, o’z imidji ustida ishlash qv nizoli holatlarni boshqara olish.
Radiatsion gigiyena sohasida (RG) Radiatsion gigiyena va muhofaza sohasida bilimlarga ega bo’lishi	RG.1	Organizmga nurlanuvchi radiatsiyalarning ta’sirini asosiy qonuniyatlarini bilish.
	RG.2	Tashqi va ichki nurlanishning yo’l qo’yiladigan darajasi, bu radiatsion xavfsizlikning asosi ekanligini bilish.
	RG.3	Sanitar dozimetrik nazoratini o’tkazish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	RG.4	Yopiq ionlantiruvchi nurlanuvchi manbalar bilan ishlashda himoyalani tamoyillarini bilish.
	RG.5	Radioaktiv ifloslanishdan tashqi muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	RG.6	Radiatsion avariya, turlari va ularning oqibatlarini bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqish ko’nikmalarga ega bo’lish
Harbiy gigiyena sohasida (XG)	XG.1	O’zbekiston Respublikasida qurolli kuchlarni sanitariya-gigiyena ta’minotini tashkil etish ko’nikmalarga ega bo’lish.

Harbiy va favqulodda sanitariya gigiyena sohasida bilimlarga ega bo’lishi	XG.2	Qo’shinlarni joylashishi, dala sharoitlarida qo’shinlarning suv ta’minoti va sifatini gigiyenik nazorati, harbiy xizmatchilarni ovqatlanishi ustidan sanitariya nazorati o’tkazish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	XG.3.	Ommaviy qirg’in qurollarini ishlatish sharoitida sanitariya nazoratining vazifalarini bilish
Kommunal va mehnat gigiyenasi sohasida (KMG) Kommunal hamda mehnat gigiyenasi va sanoatda nazorat	KMG.1	Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari, ularning organizmga ta’siri, oldini olish sog’lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	KMG.2	Pestitsidlarni ishlab chiqarishda va qo’llanilishida xavfli omillarni aniqlash va baholash ko’nikmalarga ega bo’lish.
	KMG.3	Ishlab chiqarish obektlarida davlat sanitariya nazoratini o’tkazish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	KMG.4	Turli sanoat ishlab chiqarish korxonalarida zararli va xavfli omillarni gigiyenik baholash ko’nikmalarga ega bo’lish.
Epidemiologiya va infeksiyon nazorat sohasida (EIN) Epidemiologiya va infeksiyon nazorat sohasida bilimlarga ega bo’lishi	EIN.1	Atrof-muhit omillari (ichimlik suvi, tuproq, atmosfera havosi, suv havzalari) ularning aholi salomatligiga ta’siri, atrof-muhit omillarining ifloslanishini oldini olish sog’lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	EIN.2	Yuqumli va yuqumli bo’lmagan kasalliklarni o’rganishda epidemiologik yondoshuv ko’nikmalarga ega bo’lish.
	EIN.3	Epidemiologik tekshiruv usullarini bilish va qo’llash ko’nikmalarga ega bo’lish.
	EIN.4	Noinfeksiyon kasalliklar epidemiologiyasi, epidemik jarayon to’g’risidagi ta’limot, yuqumli kasalliklar tavsifi va qo’zg’atuvchilarning evolyutsion taraqqiyotini bilish.
	EIN.5	Profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, o’quv hujjatlariga muvofiq va epidemiologik diagnostika natijalari asosida profilaktik chora-tadbirlar kompleks rejasini tuzish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	EIN.6	COVID-19 infeksiyasi va shunga o’xshash epidemiologiyasi va profilaktikasini bilish va uni o’tkazish ko’nikmalarga ega bo’lish.
	EIN.7	Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar profilaktikasi va epidemiologiyasi, emlash va uning mohiyati, immun turg’unlik hamda immun taranglik bo’yicha ko’nikmalarga ega bo’lish.
	EIN.8	Yuqumli kasalliklar profilaktikasi va epidemiologiyasi, epidemiyaga qarshi kurash tadbirlari ko’nikmalarga ega bo’lish.

EIN.9	Vaksinalar logistikasi va sovuqlik zanjiriga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.
EIN.10	Kasbiy faoliyatda ilmiy asoslangan epidemiologik tadqiqot usullarini qo‘llay olishi, kasalliklar tarqalishini o‘rganishda kuzatuv, kogort va hodisa-nazorat dizaynlaridan samarali foydalana olishi.
EIN.11	Sog‘liqni saqlash siyosatini ishlab chiqish jarayonida epidemiologik dalillardan foydalanish, tibbiy ma’lumotlarning maxfiylikini ta’minlash va axborot xavfsizligini saqlash tamoyillarini bilish.
EIN.12	Tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda kasallikni keltirib chiqaruvchi manbalarni yo‘q qilishga, antropoonoz va zooantroponoz infeksiyali kasalliklar tarqalishining oldini olishga qaratilgan faoliyatni tahlil qilish va tavsiyalar tayyorlash.

2.2. Kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar:

Talabalarni kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi;

Tibbiy profilaktika ishi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv rejasidagi majburiy fanlar blokiga bevosita kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar;

Tanlov fanlari blokiga ta’lim yo‘nalishi doirasida mutaxassislikdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek talabalarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondoshuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar kiritiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

2.3. 60910400-Tibbiy profilaktika ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	7710	257	
1.01	O‘YT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FS1304	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O‘RT O‘TSQ TXT11208	O‘zbek (rus) tili. O‘zbek tilining sohada qo‘llanilish. Tibbiyotda xorijiy til	240	8	1,2
1.05	TBUG1106	Tibbiy biologiya. Umumiy genetika	180	6	1
1.06	TK1204	Tibbiy kimyo	120	4	2
1.07	LT1104	Lotin tili va tibbiy terminologiya	120	4	1
1.08	BF1104	Biofizika	120	4	1
1.09	MK11206	Mutaxassislikka kirish	180	6	1,2
1.10	TAT1204	Tibbiyotda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.11	OAN112312	Odam anatomiyasi	360	12	1,2,3
1.12	GS12308	Gistologiya, sitologiya, embriologiya	240	8	2,3
1.13	BK13408	Biokimyo	240	8	3,4
1.14	FZ13408	Normal fiziologiya	240	8	3,4
1.15	TPS1403	Tibbiy psixologiya	90	3	4
1.16	M14508	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya	240	8	4,5
1.17	PAN15606	Patologik anatomiya	180	6	5,6
1.18	PFZ15606	Patologik fiziologiya	180	6	5,6
1.19	FR1504	Farmakologiya	120	4	5
1.20	GTEK13412	Gigiyena. Tibbiy ekologiya	360	12	3,4
1.21	STVF1903	Sud tibbiyoti, vrach faoliyatini huquqiy asoslari	90	3	9
1.22	IKXDT14507	Ichki kasalliklar, HDT	210	7	4,5
1.23	XKTR156709	Xirurgik kasalliklar. Travmatologiya va ortopediya, HDJ	270	9	5,6,7
1.24	AGPD15706	Akusherlik va ginekologiya. Pediatriya	180	6	5,7
1.25	FTDV1704	Ftiziatriya. Dermatovenerologiya	120	4	7
1.26	NTGPSN1806	Nevrologiya va tibbiy genetika. Psixiatriya va narkologiya	180	6	8
1.27	YKBYK1806	Yuqumli kasalliklar. Bolalar yuqumli kasalliklari	180	6	8

1.28	KK1903	Kasb kasalliklari	90	3	9
1.29	OTOFT11004	Otorinolingologiya. Oftalmologiya	120	4	10
1.30	JSMM18906	Jamoat salomatligi, marketing va menejment	180	6	8,9
1.31	EXE16-1018	Epidemiologiya. Harbiy epidemiologiya	540	18	6,7,8, 9,10
1.32	KG16-1014	Kommunal gigiyena	420	14	6,7,8, 9,10
1.33	BO‘G16-1014	Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi	420	14	6,7,8, 9,10
1.34	OG16-1014	Ovqatlanish gigiyenasi	420	14	6,7,8, 9,10
1.35	MG16-1014	Mehnat gigiyenasi	420	14	6,7,8, 9,10
1.36	RGXG191006	Radiatsion gigiyena. Harbiy gigiyena	180	6	9,10
2.00	TF2	Tanlov fanlar	690	23	
2.01		<i>Tanlov fanlar</i>	690	23	3,4,5, 6,7,8,10
		Jami	8400	280	
	MM2-520	Malakaviy amaliyot	600	20	1,2,3,4,5, 6,7,8,9
		HAMMASI	9000	300	

2.4. Kvalifikatsiya: Gigiyena-epidemiologiya shifokori

Bibliografik ma’lumotlar

UDK:61:796/799

Guruh S 73

Oks 75.0

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob‘ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturlari, o‘quv davri, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta’lim, ishlab chiqarish, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o‘quv fanlari bloki, oliy ta’lim muassasasi, ta’lim jarayoni, tibbiy profilaktika ishi, aholi salomatligi, atrof-muhit gigiyenasi, ogohlantiruvchi va joriy davlat sanitariya nazorati, bolalar va o‘smirlar gigiyenasi, turli ta’lim muassasalari, ta’lim-tarbiya jarayoni, ovqatlanish gigiyenasi, davlat va nodavlat oziq-ovqat korxonalarida davlat sanitariya nazorati olib borish, kommunal gigiyena, suv, tuproq, aholi turar joylari, mehnat gigiyenasi, radiatsion gigiyena, turli ishlab chiqarish korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayoni, bosqich, radiatsion xavfsizlik, shaxsiy himoya vositalari, sanitariya maorifi ishi, epidemiologiya, yuqumli va somatik kasalliklar epidemiologiyasi, OITS, VICH.

Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

**Toshkent Davlat tibbiyot universiteti,
“Sog’liqni saqlash” ta’lim sohasi bo’yicha
muvofiqlashtiruvchi soha Kengashi raisi,**

Rektor v.v.b.  Sh.A.Boymuradov

2025-yil “ ”

M.O.



KELISHILGAN:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

Direktor  A.Xoliqov

2025-yil “ ”

M.O.



**O‘zbekiston Respublikasi
Sog’liqni saqlash vazirligi**

**Vazir
o‘rinbosari  E.Basitxonova**

2025-yil “ ”

M.O.



**O‘zbekiston Respublikasi Sog’liqni
saqlash vazirligi
Fan-ta’lim va innovatsiyalar
boshqarmasi**

Boshliq  O'.Ismailov

2025-yil “ ”

M.O.



**Toshkent shahar sog’liqni saqlash
bosh boshqarmasi**

Boshliq  B.Isabekov/

2025-yil “ ”

M.O.

